



Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi, Suratlarda aks etgan mavhumlik

Xolmirzayeva Mehrinsa
G‘ayratjon qizi

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universitet talabasi.

Burhanova Feruza

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universitet Ilmiy rahbar

Annotatsiya:

Ushbu maqola modernizm olamining serrqirra ijodkori Nazar Eshonqulning poetic uslubi va “Maymun yetaklagan odam” hikoyasida yashiringan poetik detallar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar:

Suratlar galareyasi, Yevropa, Amerika, Lotin Amerika modernizmi

Аннотация:

В данной статье рассматривается поэтический стиль Назара Эшонкула, видной фигуры в мире модернизма, и поэтические детали, скрытые в рассказе «Человек, ведомый обезьяной».

Ключевые слова:

Фотогалерея, Европа, Америка, латиноамериканский модернизм

Kirish: O‘zbek adabiyotiga o‘zining metodi va uslubi bilan kirib kelgan mahoratli yozuvchi Nazar Eshonqulni biz haqiqiy modernist deya olamiz. Chunki u o‘zbek nasriga Yevropa, Lotin Amerikasi, Amerika tabiatini olib kirdi va o‘z asarlarida buni ko‘rsata oldi. Nazar Eshonqul yozgan asarlar tili murakkab. Xususan, uning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasining nomi o‘zi tushunarsiz. Lekin uni sinchliklab o‘qigan kitobxon hayotning murakkabliklarini, hayot labirintlaridan bimalol chiqish yo‘lagini topa oladi.

Asosiy qism:

“Maymun yetaklagan odam” hikoyasida uchrovchi poetic detallarning barchasi ramz ostiga olingan. Bu ramzlar mavhumlikni belgilab beradi. Hikoyani ko‘pchilik tanqidchilar sobiq sho‘rolar tuzumidagi voqea va hodisalarni aks ettirgan desa, ba‘zilar uni falsafiy tushunchaga yo‘yadilar ya‘ni inson umrining debochasi va nihoyasi odam va maymun obrazlari orqali ko‘rsatib berilgan deydi.

Hikoyaning boshlanishi o‘zi insonga umuman boshqa olamga olib kiradi. “...badjahl ma‘budlarning haykaliga o‘xshab ketar, unga qarasam odamning yuragi nohush hisdan orqaga tortardi “ jumlasini har chol so‘zini o‘qiganimizda uni yuz

ko'rinishi hikoya yakuniga qadar hayoldan ketmaydigan darajada tasvirlangan. Hikoyada berilgan noxush his, uyidan har doim kelib turadigan chirkin va qo'lansa hid ham ramz ostiga yashiringan ya'ni bu hidlar sukunat, jimlikni belgilab beradi. Ko'rishimiz mumkinki, asar yakuniga qadar jimlikka cho'milgan. Ranglar olamiga yetaklab kiruvchi surat detali esa cholning umr tilsimotiga qiyoslanadi. Ularni boshlab beruvchi dominant surat bu o'rmondan maymunni yetaklab chiqayotgan barvasta yigit surati " suratning tagiga 1921 sanasi yozib qo'yilgan edi. Surat ancha uquvsizlarcha chizilgan bo'lsada, ranglar tiniq va yorqin edi" chol yigirmanchi yillarda gurkiragan edi, navqiron va yosh edi. Keyin tartib bilan berilgan 1957, 1947, 1937, 1928, 1926, yillar ketma-ketligidagi rasmlar qoralik borgan sari quyuqlashib borar edi. Bu esa navqironlikning pasayib borishi va sobiq sho'rolar tuzumi davriga to'g'ri kelgan sanalar edi. Suratlarda shafqatsiz davr, ayanchli taqdirlar qora rang orqali ko'rsatib berilgan. Har bir surat va raqmlar ostidagi yillarda yozuvchining og'riqli nuqtalari, alamli dardlari, ayta olmagan dardlari yashiringan edi. Shuni ham aytish joizki, hikoya falsafiy ma'noda ham yozilgan desa bo'ladi. Negaki deganda yigitning maymun ketaklab o'rmondan chiqishi kishi umrining ibtidosi, hikoya yakunida munkillagan cholni maymun yetaklab ketishi bu intixo, o'rtadagi yillar nomli suratlar esa hayot yo'llarimiz ekanligini tushunishimiz mumkin.

Asar davomida bir umr ishongan orzulari, umidlari, hayoti sarobga aylangan, nima yaxshiyu nima yomonni farqiga tushunmagan shaxs timsolini ham uchratishimiz mumkin. Sababi sho'ro jamiyati hurfikr, ziyoli qatlamni jamiyatdan uzishga uringan. Hikoyada tasvirlangan qora rang ana shunday ramziy mohiyatni bajargan.

Xulosa

Serqirra ijodkor, nasr yozuvchisi Nazar Eshonqul hikoyasida berayotgan ma'no mazmunni real voqealikka xos bo'lmagan bo'yoqlar, suratlar galareyasidagi odam va maymun munosabatlarining poetik timsoli orqali real mazmunni uyg'unlashtirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Feruza Burhanova " Adabiy- estetik qarash va ijodiy jarayon" . Monografiya
2. Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi